RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI	1315
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNI	1321
I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	1327
Usmanova Zumrad Islamovna	
"YASHIL" XIZMAT KO'RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL.....	1333
Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ	1339
Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич	
TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	1344
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIISH OPERATSIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	1356
Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anjion qizi	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1361
Umurzak Ablakulovich Radjabov	



ISHLAB CHIQRADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI	1366
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH.....	1374
Matkarimov Mansur Maksudovich	
DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION	1379
Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuj Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich	
TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH.....	1385
Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	1388
Usmonov Shermuhammad Xaydar o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1391
Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI	1396
Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING MIQDORIY VA SIFAT O'ZGARISHLARI.....	1400
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЛИКВИДНОСТЬЮ И ДЕНЕЖНОЙ МАССОЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	1405
Холмуродов Жавохир Бахтияр ўғли	
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT BOZORINING O'ZIGA XOS SEGMENTI SIFATIDA	1410
Sevunov Turg'unbek Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI "ZARCHOB" GESNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	1414
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna, Ollanazarov Boburjon Alisher o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕРВИСНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА.....	1418
С.А. Исхакова	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA MA'SULIYATLI ISTE'MOLNING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1424
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT VA ICHKI B2B BOZORIDAGI O'RNI.....	1433
Sapayeva Nilufar Qadamboyevna	



TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT VA ICHKI B2B BOZORIDAGI O'RNI

Sapayeva Nilufar Qadamboyevna

Abu Rayxon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada to'qimachilik korxonalarining eksport va ichki B2B bozorlaridagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tarmoqning global qiymat zanjiridagi pozitsiyasi, B2B hamkorlik shakllari hamda eksport raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqildi. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining joriy holati xalqaro tajriba bilan qiyosiy baholandi. Ishlab chiqarish salohiyati, xalqaro sertifikatlash talablari, marketing yondashuvlari va raqamli texnologiyalarning B2B munosabatlarga ta'siri tahlil etildi. Natijada tarmoqning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, ichki kooperatsiyani rivojlantirish hamda qo'shilgan qiymatni oshirish yo'nalishlari belgilandi. Maqola natijalari to'qimachilik korxonalarining B2B segmentidagi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, B2B bozor, eksport, raqobatbardoshlik, qiymat zanjiri, xalqaro savdo.

Abstract. The article analyzed the role of textile enterprises in export and domestic B2B markets. The study examined the sector's position within the global value chain, forms of B2B cooperation, and factors influencing export competitiveness. The current state of Uzbekistan's textile industry was assessed in comparison with international practice. The impact of production capacity, international certification requirements, marketing approaches, and digital technologies on the development of B2B relations was analyzed. The findings identified directions for expanding export opportunities, strengthening domestic cooperation, and increasing value added. The results substantiated the potential for improving the performance of textile enterprises in the B2B segment.

Key words: textile industry, B2B market, export, competitiveness, value chain, international trade.

Аннотация. В статье проанализирована роль текстильных предприятий на экспортном и внутреннем рынках B2B. В ходе исследования рассмотрены позиция отрасли в глобальной цепочке создания стоимости, формы B2B-сотрудничества и факторы, влияющие на экспортную конкурентоспособность. Текущее состояние текстильной промышленности Узбекистана было оценено в сравнении с международной практикой. Проанализировано влияние производственного потенциала, требований международной сертификации, маркетинговых подходов и цифровых технологий на развитие B2B-отношений. В результате были определены направления расширения экспортных возможностей, развития внутренней кооперации и увеличения добавленной стоимости. Обосновано, что результаты исследования способствуют совершенствованию деятельности текстильных предприятий в сегменте B2B.

Ключевые слова: текстильная промышленность, рынок B2B, экспорт, конкурентоспособность, цепочка создания стоимости, международная торговля.

KIRISH

To'qimachilik sanoati jahon iqtisodiyotida eng qadimiy va barqaror tarmoqlardan biri sifatida yuz millionlab kishini ish bilan ta'minlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlarning industriallashtirish jarayonida esa strategik ahamiyatga ega bo'lib kelgan [1]. Global to'qimachilik va kiyim-kechak bozori 2023-yilda 1,7 trillion AQSh dollariga yaqin hajmi tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich tarmoqning jahon yalpi ichki mahsulotidagi salmoqli ulushini tasdiqlaydi [2]. Bunda biznesdan-biznesga (B2B) segmenti umumiy savdo hajmining 60 foizdan ortiq qismini qamrab oladi, bu esa to'qimachilik korxonalarini o'rtasidagi korporativ munosabatlarning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi [3].

O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi o'n yillikda tub o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Mamlakatda xom paxta eksportiga bog'liq iqtisodiy modeldan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatni oshirishga yo'naltirilgan strategiyaga o'tish jarayoni jadal rivojlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, tarmoq yalpi ichki mahsulotning 4 foizdan ortiq qismini shakllantirgan [4]. Bu o'sish tendensiyasi mamlakatning to'qimachilik sohasidagi strategik imkoniyatlarining kengayib borayotganini tasdiqlovchi muhim ko'rsatkichdir.

B2B bozor munosabatlari to'qimachilik tarmog'ida ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, ichki bozorda xom ashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va ulgurji xaridorlar o'rtasidagi vertikal integratsiya aloqalari; ikkinchidan, xalqaro eksport bozorlarida chet ellik brendlar, savdo kompaniyalari va



chakana tarmoqlar bilan o'rnatilgan shartnomaviy munosabatlar. Har ikki yo'nalish ham o'ziga xos tuzilmaviy xususiyatlarga ega bo'lib, ularning samarali boshqarilishi korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [5].

Global qiymat zanjirlari (Global Value Chains — GVC) konsepsiyasi nuqtayi nazaridan to'qimachilik tarmog'i buyer-driven (xaridor boshqaruvdagi) zanjirlar tipiga mansub bo'lib, bunda yirik xalqaro brendlar va chakana tarmoqlar ishlab chiqarish jarayoni ustidan bevosita nazorat o'rnatgan [6]. Bu holatda rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalarini, jumladan, O'zbekiston to'qimachilik ishlab chiqaruvchilari, zanjirning quyi bo'g'inlarida faoliyat yuritib, asosan buyurtma asosida ishlab chiqarish (OEM) modelidan foydalanadi. Biroq so'nggi yillarda OBM (original brand manufacturing) va ODM (original design manufacturing) modellariga o'tish tendensiyasi kuchaygan, bu esa korxonalarining qo'shilgan qiymat ulushini oshirishga imkon yaratgan [7].

Tadqiqotning maqsadi — to'qimachilik korxonalarining eksport va ichki B2B bozorida o'rni nazariy jihatdan asoslash, raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar tizimini tizimlashtirilgan holda taqdim etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi: birinchidan, to'qimachilik tarmog'ining B2B bozor tuzilmasidagi funksional rolini nazariy asoslash; ikkinchidan, eksport raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni identifikatsiyalash; uchinchidan, ichki B2B bozor mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; to'rtinchidan, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining joriy holatini xalqaro kontekstda baholash.

Tadqiqot nazariy ahamiyati shundaki, to'qimachilik tarmog'ida B2B munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid mavjud konseptual yondashuvlar integratsiyalashtirilgan holda taqdim etilgan. Amaliy jihatdan esa korxonalar uchun eksport salohiyatini oshirish va ichki bozorda raqobat ustunliklarini shakllantirish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik korxonalarining B2B bozordagi faoliyatiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili bir necha asosiy nazariy yo'nalishlarni qamrab oladi: global qiymat zanjirlari nazariyasi, sanoat klasterlari konsepsiyasi, munosabatlar marketingi va xalqaro savdo nazariyalari.

Gereffi va Fernandez-Stark global qiymat zanjirlari doirasida to'qimachilik tarmog'ining tuzilmaviy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. Ularning yondashuvi bo'yicha, to'qimachilik zanjiri beshta asosiy bo'g'indan iborat: xom ashyo yetkazib berish, tolalar ishlab chiqarish, to'qimachilik ishlab chiqarish, tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish va marketing-tarqatish [6]. Har bir bo'g'in o'ziga xos B2B munosabatlar tizimini shakllantiradi. Gereffi tomonidan ilgari surilgan governance (boshqaruv) tipologiyasi — bozorga asoslangan, modulli, relatsion, tutqun va iyerarxik boshqaruv shakllari — to'qimachilik korxonalarining zanjirdagi pozitsiyasini tushunishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi [8].

Porter raqobat ustunligi nazariyasida tarmoq raqobatbardoshligini belgilovchi beshta kuch modelini taqdim etgan: yetkazib beruvchilar va xaridorlarning savdo quvvati, yangi ishtirokchilar tahdidi, o'rinbosar mahsulotlar tahdidi hamda tarmoq ichidagi raqobat [9]. To'qimachilik tarmog'iga tatbiq etilganda, bu model ayniqsa xaridorlarning yuqori savdo quvvatini ko'rsatadi, chunki yirik xalqaro brendlar (H&M, Zara, Primark kabilar) narxlash va sifat talablari bo'yicha ishlab chiqaruvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazadi [10].

Munosabatlar marketingi nazariyasi kontekstida Hakansson va Snehota B2B munosabatlarning uch o'lchamli tuzilmasini taklif qilgan: faoliyat aloqalari (activity links), resurs bog'lanishliklari (resource ties) va ishtirokchi aloqalari (actor bonds) [11]. Bu model to'qimachilik korxonalarini va ularning B2B hamkorlari o'rtasidagi munosabatlar tabiatini tushunishda juda qo'l keladi. Xususan, xom ashyo yetkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchi o'rtasidagi munosabatlarda resurs bog'lanishliklari (masalan, maxsus tolalar yetkazib berish) hal qiluvchi rol o'ynaydi, shu bilan birga eksport bozorlarida brendlar bilan ishtirokchi aloqalari (shaxsiy munosabatlar, ishonch) ustuvor ahamiyat kasb etadi [12].

Dunningning OLI (Ownership-Location-Internalization) paradigmasi xalqaro B2B munosabatlarning shakllanishida uch asosiy omilni ajratib ko'rsatadi: mulkchilik ustunliklari (texnologiya, brend, bilim), joylashuv ustunliklari (arzon ishchi kuchi, xom ashyo bazasi, infratuzilma) va internalizatsiya ustunliklari (tranzaksiyon xarajatlarni kamaytirish) [13]. O'zbekiston to'qimachilik korxonalarini uchun joylashuv ustunliklari — paxta xom ashyosining mahalliy bazasi va nisbatan arzon malakali ishchi kuchi — eng muhim raqobat omili sifatida namoyon bo'ladi.

Kaplinsky va Morris to'qimachilik qiymat zanjirida upgrading (darajani oshirish) to'rt turini aniqlagan: jarayon upgradingi (samaradorlikni oshirish), mahsulot upgradingi (yangi mahsulotlar ishlab chiqarish), funksional upgradingi (yangi funksiyalarni o'zlashtirish) va zanjirlararo upgradingi (boshqa tarmoqlarga o'tish) [14]. Amaliyotda rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalarini odatda jarayon upgradingidan boshlaydi va asta-sekin funksional upgradingga o'tadi. Turkiya, Bangladesh va Vyetnam to'qimachilik tarmoqlari bu evolyutsion yo'lni yaqqol namoyish etadi [15].



Raqamli transformatsiya kontekstida Brennen va Kreiss raqamlashtirish (digitization), raqamli transformatsiya (digitalization) va raqamli o'zgarish (digital transformation) tushunchalarini farqlaydi [16]. To'qimachilik B2B bozoriga tatbiq etilganda, bu jarayon elektron savdo platformalari (Alibaba, Global Sources), ERP tizimlari, CRM yechimlari va raqamli yetkazib berish zanjirini boshqarish (digital supply chain management) orqali amalga oshiriladi. Xususan, Alibaba platformasi orqali amalga oshirilgan B2B tranzaksiyalar hajmi 2023-yilda 30 milliard dollardan oshgani qayd etilgan [17].

Barqaror rivojlanish doirasida McDonough va Braungart tomonidan ilgari surilgan «Cradle to Cradle» konsepsiyasi to'qimachilik tarmog'ida circular economy (aylanma iqtisodiyot) tamoyillarini joriy etishga nazariy asos yaratgan [18]. Zamonaviy B2B xaridorlar, ayniqsa Yevropa bozorida faoliyat yurituvchi brendlar, yetkazib beruvchilardan GOTS (Global Organic Textile Standard), OEKO-TEX va SA8000 kabi sertifikatsiyalarni talab qiladi, bu esa eksport yo'nalishidagi B2B munosabatlarda barqarorlik mezonlarining hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi [19].

Nordas Jahon savdo tashkiloti doirasida o'tkazgan tadqiqotida to'qimachilik savdosidagi tariflar va notarif to'siqlarning B2B munosabatlarga ta'sirini o'rgangan. Uning xulosalariga ko'ra, savdo liberalizatsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar to'qimachilik korxonalarining global B2B tarmoqlariga integratsiyalashuvini sezilarli tezlashtirgan [20]. Bu omil O'zbekistonning JSTga a'zolik arizasi kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki a'zolik tarmoq korxonalarining xalqaro B2B hamkorliklari uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Tovar UNCTAD hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlar to'qimachilik eksportining 75 foizdan ortig'i B2B segmentida amalga oshirilishini qayd etgan. Bu proporsiya tarmoqda korporativ munosabatlarning yakka tartibdagi savdodan ko'ra ustun ekanini statistik jihatdan tasdiqlaydi [21]. Bunda eksport yo'nalishidagi B2B bitimlar odatda uzoq muddatli shartnomalar asosida tuziladi, bu esa korxonalariga ishlab chiqarishni rejalashtirish va investitsion qarorlar qabul qilishda barqarorlikni ta'minlaydi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik korxonalarining B2B bozordagi faoliyati ko'p qirrali va murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uni o'rganishda interdistsiplinar yondashuv zarur. Mavjud tadqiqotlarda global qiymat zanjirlari, munosabatlar marketingi va xalqaro savdo nazariyalari integratsiyalashtirilgan holda kam o'rganilgan, bu esa ushbu tadqiqotning nazariy hissasini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy va qiyosiy tahlil yondashuvlari qo'llanildi. Avvalo, to'qimachilik korxonalarining eksport va ichki B2B bozorida o'rnini aniqlash maqsadida global qiymat zanjirlari, B2B marketing va raqobatbardoshlik nazariyalariga oid ilmiy manbalar tizimli ravishda o'rganildi. Adabiyotlar Scopus, Web of Science, Google Scholar hamda xalqaro tashkilotlar (UNCTAD, WTO, ITMF) hisobotlari asosida tanlab olindi.


Tahlilda konseptual sintez usuli orqali mavjud nazariy yondashuvlar integratsiyalashtirildi va to'qimachilik B2B ekotizimining modeli shakllantirildi. Shuningdek, O'zbekiston ko'rsatkichlari Turkiya, Bangladesh va Vyetnam tajribasi bilan qiyosiy baholandi. Ikkilamchi statistik ma'lumotlar asosida eksport dinamikasi, raqobat omillari va B2B munosabatlar tuzilmasi tahlil qilindi. Tanlangan metodologiya tadqiqot maqsadiga mos ravishda nazariy asoslangan va tahliliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari to'rt asosiy yo'nalishda tizimlashtirilgan: to'qimachilik korxonalarining global qiymat zanjiridagi o'rnini, eksport B2B bozorining tuzilmaviy xususiyatlari, ichki B2B bozor mexanizmlari hamda raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar tizimi.

Global to'qimachilik qiymat zanjirining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu zanjir murakkab, ko'p bo'g'inli tuzilmaga ega bo'lib, har bir bo'g'inda o'ziga xos B2B munosabatlar shakllangan. Gereffi va Fernandez-Stark tasnifiga ko'ra, zanjirning quyi bo'g'inlari (xom ashyo va yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish) nisbatan past qo'shilgan qiymatni yaratadi, yuqori bo'g'inlar (dizayn, brending, marketing va tarqatish) esa qo'shilgan qiymatning asosiy qismini shakllantiradi [6]. Bu tuzilma «smile curve» (tabassum egri chiziqlari) modeli orqali tasvirlanadi, bunda ishlab chiqarish bo'g'ini eng past qo'shilgan qiymatga ega.

O'zbekiston to'qimachilik korxonalarini hozirgi kunda asosan zanjirning o'rta bo'g'inlarida — ya'ni to'qimachilik ishlab chiqarish va tayyor kiyim-kechak tikish bosqichlarida faoliyat yuritadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil holatiga mamlakatda 7400 dan ortiq to'qimachilik korxonasi faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 1900 dan ortig'i eksportga yo'naltirilgan [4]. Bu korxonalarining aksariyati xalqaro brendlar uchun buyurtma asosida ishlab chiqarish (OEM) modelida ishlaydi, bu esa ularning zanjirdagi pozitsiyasini nisbatan cheklangan funksional doirada saqlaydi (1-rasm).



1-rasm. To'qimachilik korxonalarining B2B ekotizimi konseptual modeli¹

1-rasmda taqdim etilgan konseptual model to'qimachilik korxonasining B2B ekotizimidagi markaziy o'rnini tasvirlaydi. Model to'rtta asosiy tashqi subyekt bilan o'zaro aloqadorlikni aks ettiradi: xom ashyo yetkazib beruvchilar, eksport bozorlari, ichki B2B xaridorlar va texnologiya hamkorlari. Bu subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar qiymat zanjiri integratsiyasi va bozor diversifikatsiyasi tamoyillari asosida boshqariladi.

Eksport B2B bozorida to'qimachilik korxonalarini bir necha asosiy xaridor toifalari bilan munosabat o'rnatadi. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, global to'qimachilik eksportining eng yirik xaridorlari Yevropa Ittifoqi (27%), AQSh (18%) va Yaponiya (7%) hisoblanadi [21]. Bu bozorlarning har biri o'ziga xos B2B munosabatlar tuzilmasiga ega.

Yevropa bozorida B2B xaridorlar — yirik moda brendlari va chakana tarmoqlar — yetkazib beruvchilardan yuqori sifat, barqarorlik sertifikatlarini va ijtimoiy mas'uliyat standartlariga rioya etishni talab qiladi. Bu bozorda munosabatlar odatda relatsion tipga mansub bo'lib, uzoq muddatli hamkorlik va o'zaro ishonchga asoslanadi [8]. AQSh bozorida narx-sifat nisbati ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, xaridorlar ko'proq modulli boshqaruv modelidan foydalanadi — ya'ni yetkazib beruvchilarni standartlashtirilgan mezonlar asosida tanlaydi va zarur hollarda o'zgartiradi [10].

O'zbekiston to'qimachilik eksportining geografik tuzilmasi tahlil qilinganda, asosiy eksport yo'nalishlari sifatida Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Qozog'iston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ajralib turadi. Bunda Rossiya va MDH mamlakatlari bilan savdo munosabatlari tarixiy aloqalar va geografik yaqinlik tufayli nisbatan barqaror, Yevropa yo'nalishida GSP+ preferensial savdo rejimi muhim omil sifatida xizmat qiladi (1-jadval) [4].

1-jadval. O'zbekiston to'qimachilik eksportining asosiy yo'nalishlari (2023-yil)²

Eksport yo'nalishi	Ulushi, foizda	Asosiy mahsulotlar	B2B turi
Rossiya Federatsiyasi	22-25	Tayyor kiyim, trikotaj	Distribyutorlik
Xitoy	15-18	Ip-gazlama, paxta tolasi	Xom ashyo B2B
Turkiya	12-15	Gazlama, yarim tayyor	Ishlab chiqarish B2B
Yevropa Ittifoqi	10-12	Tayyor kiyim (OEM)	Brend-yetkazuvchi
Qozog'iston va MDH	8-10	Uy-ro'zg'or tekstili	Ulgurji B2B
Boshqa mamlakatlar	20-25	Turli xil mahsulotlar	Aralash

1 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan (Porter, 2008; Gereffi, 2018 asosida)

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi va Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [4]



1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston to'qimachilik eksportining geografik tuzilmasi nisbatan diversifikatsiyalashgan bo'lsa-da, B2B munosabatlar tabiati yo'nalishlarga qarab sezilarli farqlanadi. Rossiya va MDH bozorlarida distribyutorlik va ulgurji savdo modellari ustunlik qiladi, Yevropa yo'nalishida brend-yetkazuvchi munosabatlari — ya'ni OEM modelida ishlab chiqarish asosiy shakl hisoblanadi.


Ichki B2B bozor to'qimachilik korxonalarini uchun eksportdan kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Ichki bozorda B2B munosabatlar uchta asosiy bo'g'inda shakllanadi: xom ashyo yetkazib berish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va tayyor mahsulot tarqatish. O'zbekistonda ichki B2B bozorning o'ziga xos xususiyati shundaki, mamlakatda paxta xom ashyosining to'liq ishlab chiqarish zanjiri — paxtachilikdan tayyor mahsulotgacha — mavjud, bu esa vertikal integratsiya imkoniyatlarini kengaytiradi [4].

Ichki B2B bozorning birinchi bo'g'inida — xom ashyo yetkazib berishda — paxta tozalash zavodlari va to'qimachilik korxonalarini o'rtasidagi munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu munosabatlar odatda shartnomaviy asosda tuziladi, bunda xom ashyo sifati, yetkazib berish muddatlari va narxlash shartlari asosiy parametrlar sifatida belgilanadi. So'nggi yillarda bu segmentda klaster yondashuvi joriy etilgan bo'lib, to'qimachilik klasterlari doirasida xom ashyo yetkazib berish jarayoni optimallashtirilgan [24].

Ikkinchi bo'g'in — ishlab chiqarish kooperatsiyasi — turli ixtisoslashgan korxonalar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini o'z ichiga oladi. Masalan, ip yigirish korxonasi o'z mahsulotini to'qimachilik fabrikasiga, u tayyor gazlamani tikuvchilik korxonasiga yetkazib beradi. Bu zanjirda har bir bo'g'in o'ziga xos B2B shartnomalar orqali bog'langan bo'lib, umumiy samaradorlik zanjirning eng zaif bo'g'iniga bog'liq bo'ladi — bu Goldrattning cheklovlar nazariyasiga (Theory of Constraints) mos keladi [25].

Uchinchi bo'g'in — tayyor mahsulot tarqatish — ichki bozorning ulgurji va yarim ulgurji segmentini qamrab oladi. Bu bo'g'inida to'qimachilik korxonalarini ulgurji xaridorlar, korporativ mijozlar (mehmonxonalar, kasalxonalar, davlat muassasalari uchun maxsus buyurtmalar) va boshqa ishlab chiqarish korxonalarini bilan munosabat o'rnatadi. Korporativ segment ayniqsa o'sish potensialiga ega, chunki yirik mehmonxona tarmoqlari, tibbiyot muassasalari va harbiy soha barqaror talab manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, to'qimachilik korxonalarining eksport va ichki B2B bozoridagi raqobatbardoshligini belgilovchi omillarni ikki guruhga ajratish mumkin: ichki (firma darajasidagi) va tashqi (makro muhit) omillar. Quyida har bir omil guruhi batafsil tahlil qilingan (2-rasm).



2-rasm. To'qimachilik korxonalarini eksport raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar modeli³

2-rasmda taqdim etilgan model eksport raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi to'rtta asosiy va to'rtta qo'shimcha omilni aks ettiradi. Asosiy omillar — ishlab chiqarish salohiyati, xalqaro standartlar, marketing

3 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan (Dunning, 2001; Porter, 2008 nazariyalari asosida)



strategiyasi va inson resurslari — bevosita raqobat ustunliklarini shakllantiradi. Qo'shimcha omillar — davlat qo'llab-quvvatlashi, logistika, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish — ko'makchi, lekin muhim rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarish salohiyati omili korxonaning texnologik jihozlanganlik darajasi, ishlab chiqarish quvvati va mahsulot sifatini qamrab oladi. Porter (2008)ning raqobat ustunligi nazariyasiga muvofiq, tarmoqdagi xarajat liderligi yoki differentsiatsiya strategiyasi bevosita ishlab chiqarish salohiyatiga bog'liq [9]. O'zbekiston to'qimachilik korxonalarining aksariyati so'nggi yillarda texnologik modernizatsiyani amalga oshirgan — Germaniya, Italiya, Yaponiya va Xitoy ishlab chiqaruvchilarining zamonaviy uskunalari o'rnatilgan. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshirgan va eksport imkoniyatlarini kengaytirgan [4].

Xalqaro standartlar omili zamonaviy B2B bozorida tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. ISO 9001 (sifat menejmenti), ISO 14001 (ekologik menejment), GOTS (organik to'qimachilik standarti), OEKO-TEX Standard 100 (zararsizlik sertifikat) va SA8000 (ijtimoiy javobgarlik standarti) — bularning barchasi eksport B2B xaridorlarining asosiy talablari qatoriga kiradi [19]. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xalqaro sertifikatsiyaga ega korxonalar eksport hajmini o'rtacha 30–40 foizga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki sertifikatsiya B2B xaridorlar uchun ishonch signali vazifasini o'taydi.

Marketing strategiyasi omili to'qimachilik korxonalarining B2B bozordagi pozitsiyasini bevosita belgilaydi. B2B marketing B2C (biznesdan iste'molchiga) marketingdan tubdan farqlanadi: bunda qaror qabul qilish jarayoni uzoqroq, xaridor soni cheklangan, lekin bitim hajmi katta, munosabatlar shaxsiylashtirilgan va uzoq muddatli [12]. Samarali B2B marketing strategiyasi xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish (Texworld Paris, ITMA, Canton Fair), raqamli platformalardan foydalanish (Alibaba, TradeIndia), bevosita muzokaralar va shaxsiy munosabatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi [17].

Inson resurslari salohiyati to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligida fundamental ahamiyatga ega. Malakali ishchi kuchi, tajribali texnologlar, xalqaro savdo bo'yicha mutaxassislar va marketing menejerlarining mavjudligi korxonaning B2B bozordagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Dunning (2001) OLI paradigmasi kontekstida inson resurslari mulkchilik ustunliklari tarkibiga kiradi va korxonaning xalqaro bozorlardagi raqobat qobiliyatini shakllantiradi (2-jadval) [13].

2-jadval. To'qimachilik B2B bozorida raqobatbardoshlik omillarining qiyosiy tahlili⁴

Omil	O'zbekiston	Turkiya	Bangladesh	Vyetnam
Xom ashyo bazasi	Yuqori	O'rta	Past	Past
Ishchi kuchi narxi	Past-o'rta	O'rta-yuqori	Past	Past-o'rta
Texnologik daraja	O'rta	Yuqori	O'rta	O'rta-yuqori
Xalqaro sertifikatsiya	O'smoqda	Yuqori	O'rta	Yuqori
B2B infratuzilma	Rivojlanmoqda	Rivojlangan	O'rta	Rivojlangan
Logistika	Rivojlanmoqda	Qulay	Qulay	Qulay

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati xom ashyo bazasi bo'yicha muhim raqobat ustunligiga ega — mamlakatning paxta yetishtirish va birlamchi qayta ishlash imkoniyatlari boshqa raqobatchilarga nisbatan sezilarli afzallik yaratadi. Shu bilan birga, logistika infratuzilmasi va xalqaro sertifikatsiya yo'nalishlarida rivojlanish salohiyati mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishlarni yanada takomillashtirish qo'shilgan qiymatni oshirish hamda yangi eksport bozorlariga kirib borish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu tarmoqning uzoq muddatli barqaror o'sishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Tashqi omillar qatorida davlat qo'llab-quvvatlashi, logistika infratuzilmasi, savdo siyosati va institutsional muhit alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda to'qimachilik tarmog'iga yo'naltirilgan bir qator rag'batlantirish mexanizmlari amal qiladi: soliq imtiyozlari, eksport subsidiyalari, erkin iqtisodiy zonalar va klaster tashkil etishni qo'llab-quvvatlash. Bu choralar tarmoqning jadal rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan [4].

Raqamli transformatsiya omili to'qimachilik B2B bozorida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Brennen va Kreiss ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalar an'anaviy B2B munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqda [16]. Xususan, raqamli B2B platformalar (Alibaba, TradeIndia, Global Sources) orqali O'zbekiston korxonalarini yangi xalqaro xaridorlar bilan bevosita aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu tendensiya ayniqsa kichik va o'rta to'qimachilik korxonalarini uchun muhim, chunki ularga an'anaviy eksport kanallariga qaraganda kam xarajat bilan xalqaro bozorga chiqish imkonini beradi [17].

4 Manba: ITMF, WTO va milliy statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [2, 4, 21]



XULOSA VA TAKLIFLAR

To'qimachilik korxonalari O'zbekiston iqtisodiyotida eksport va ichki B2B bozorlarining faol ishtirokchisi sifatida shakllangan bo'lib, ko'p bosqichli ishlab chiqarish va hamkorlik tizimi asosida faoliyat yuritmoqda. Mamlakatda paxta xom ashyosining mavjudligi, uni chuqur qayta ishlash imkoniyatlari hamda xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish zanjirining shakllanganligi tarmoqning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratgan. Ushbu omil ichki kooperatsiyani kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport geografiyasini kengaytirish imkonini bermiqda.

O'zbekiston to'qimachilik korxonalari global qiymat zanjirining ishlab chiqarish segmentida barqaror o'rin egallagan. Shu bilan birga, dizayn, brending, marketing va mustaqil savdo kanallarini rivojlantirish orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlari mavjud. Mahalliy brendlarni shakllantirish, tayyor mahsulot eksporti ulushini oshirish hamda xalqaro hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kengaytirish tarmoqning global bozordagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Eksport B2B bozorlarida hamkorlik shakllari hududiy xususiyatlarga ega. Yevropa bozorida sifat va barqarorlik standartlari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi, AQSh bozorida moslashuvchan yetkazib berish va narx-sifat muvozanati muhim hisoblanadi, MDH mamlakatlarida distribyutorlik va ulgurji savdo modeli samarali qo'llanilmoqda. Har bir yo'nalish uchun moslashtirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqish va bozor diversifikatsiyasini kuchaytirish eksport barqarorligini ta'minlaydi.

Ichki B2B bozor ishlab chiqarish kooperatsiyasi va vertikal integratsiya asosida rivojlanmoqda. Klaster tizimi xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni yagona boshqaruv mexanizmi asosida muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va qo'shilgan qiymatni ko'paytirishga xizmat qilmoqda.

Raqobatbardoshlik ishlab chiqarish modernizatsiyasi, texnologik yangilanish, xalqaro sertifikatlash, marketing boshqaruvi, inson resurslari salohiyati, logistika infratuzilmasi va raqamli texnologiyalar darajasiga bog'liq. So'nggi yillarda ishlab chiqarish quvvatlarining yangilanishi va zamonaviy uskunalarining joriy etilishi mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritish global B2B bozorlarda ishonchli hamkor sifatida shakllanish imkonini beradi.

Amaliy takliflar quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, korxonalarining funksional rivojlanish strategiyasini izchil amalga oshirish zarur. OEM modelidan ODM va OBM bosqichlariga o'tish, dizayn markazlarini tashkil etish, mahalliy brendlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish qo'shilgan qiymat ulushini oshiradi.

Ikkinchiidan, xalqaro sertifikatlash tizimini kengaytirish va sifat menejmenti standartlarini joriy etishni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq. GOTS, OEKO-TEX, ISO va boshqa standartlarga muvofiqlik eksport bozorlarida raqobat ustunligini mustahkamlaydi.

Uchinchiidan, raqamli B2B platformalardan foydalanishni kengaytirish lozim. Milliy raqamli savdo platformalarini rivojlantirish, xalqaro elektron savdo tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish kichik va o'rta korxonalar uchun yangi hamkorlar topish imkonini yaratadi.

To'rtinchiidan, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va transport xarajatlarini optimallashtirish eksport samaradorligini oshiradi. Multimodal transport koridorlarini rivojlantirish va bojxona jarayonlarini soddalashtirish tarmoqning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Beshinchiidan, kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirilishi zarur. Xalqaro savdo, B2B marketing, sifat menejmenti va raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish korxonalar boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Oltinchiidan, barqaror ishlab chiqarish tamoyillarini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Resurs tejovchi texnologiyalar, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari va aylana iqtisodiyot elementlarini qo'llash xalqaro hamkorlikni kengaytiradi hamda uzoq muddatli ustunlikni ta'minlaydi.

Kelgusida empirik ma'lumotlar asosida miqdoriy tahlillarni chuqurlashtirish, korxonalar darajasida amaliy tadqiqotlar o'tkazish va xalqaro tajribalarni integratsiyalash tarmoq rivojlanish strategiyasini yanada takomillashtirish imkonini beradi. To'qimachilik sanoati mavjud resurs salohiyati, modernizatsiya jarayonlari va bozor diversifikatsiyasi orqali eksport va ichki B2B segmentida barqaror o'sish imkoniyatlariga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World Bank. (2019). World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. Washington, DC. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2020>
2. ITMF — International Textile Manufacturers Federation. (2024). International Textile Industry Statistics. Zurich. <https://www.itmf.org/statistics>
3. Statista. (2024). Global B2B e-commerce market size 2023-2028. <https://www.statista.com/statistics/1219313/b2b-ecommerce-market-size-global/>



4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari — to'qimachilik tarmog'i. Toshkent. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry>
5. Humphrey, J., & Schmitz, H. (2002). How does insertion in global value chains affect upgrading in industrial clusters? *Regional Studies*, 36(9), 1017-1027. <https://doi.org/10.1080/0034340022000022198>
6. Gereffi, G., & Fernandez-Stark, K. (2016). *Global Value Chain Analysis: A Primer* (2nd ed.). Duke University Center on Globalization, Governance & Competitiveness. https://gvcc.duke.edu/wp-content/uploads/Duke_CGGC_Global_Value_Chain_GVC_Analysis_Primer_2nd_Ed_2016.pdf
7. Frederick, S., & Gereffi, G. (2011). Upgrading and restructuring in the global apparel value chain: Why China and Asia are outperforming Mexico and Central America. *International Journal of Technological Learning, Innovation and Development*, 4(1-3), 67-95. <https://doi.org/10.1504/IJTLID.2011.041900>
8. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The governance of global value chains. *Review of International Political Economy*, 12(1), 78-104. <https://doi.org/10.1080/09692290500049805>
9. Porter, M. E. (2008). The Five Competitive Forces That Shape Strategy. *Harvard Business Review*, 86(1), 78-93. <https://hbr.org/2008/01/the-five-competitive-forces-that-shape-strategy>
10. Appelbaum, R. P. (2008). Giant Transnational Contractors in East Asia: Emergent Trends in Global Supply Chains. *Competition & Change*, 12(1), 69-87. <https://doi.org/10.1179/102452908X264548>
11. Hakansson, H., & Snehota, I. (1995). *Developing Relationships in Business Networks*. London: Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315835440>
12. Ford, D., Gadde, L.-E., Hakansson, H., & Snehota, I. (2011). *Managing Business Relationships* (3rd ed.). Chichester: John Wiley & Sons. <https://www.wiley.com/en-gb/Managing+Business+Relationships-p-9780470721094>
13. Dunning, J. H. (2001). The Eclectic (OLI) Paradigm of International Production: Past, Present and Future. *International Journal of the Economics of Business*, 8(2), 173-190. <https://doi.org/10.1080/13571510110051441>
14. Kaplinsky, R., & Morris, M. (2016). Thinning and thickening: productive sector policies in the era of global value chains. *European Journal of Development Research*, 28(4), 625-645. <https://doi.org/10.1057/ejdr.2015.29>
15. Staritz, C., & Morris, M. (2013). Local embeddedness, upgrading and skill development: Global value chains and foreign direct investment in Lesotho's apparel industry. *Capturing the Gains Working Paper 20*. <https://www.capturingthegains.org/pdf/ctg-wp-2013-20.pdf>
16. Brennen, J. S., & Kreiss, D. (2016). Digitalization and Digitization. In K. B. Jensen et al. (Eds.), *The International Encyclopedia of Communication Theory and Philosophy*. Wiley. <https://doi.org/10.1002/9781118766804.wbiect111>
17. Alibaba Group. (2024). *Alibaba.com Annual B2B Trade Report 2023*. Hangzhou. <https://www.alibaba.com/trade-report>
18. McDonough, W., & Braungart, M. (2002). *Cradle to Cradle: Remaking the Way We Make Things*. New York: North Point Press. <https://mcdonough.com/cradle-to-cradle/>
19. GOTS — Global Organic Textile Standard. (2024). *The Standard*. <https://global-standard.org/the-standard>
20. Nordas, H. K. (2004). *The Global Textile and Clothing Industry Post the Agreement on Textiles and Clothing*. WTO Discussion Paper No. 5. https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/discussion_papers5_e.pdf
21. UNCTAD. (2023). *Handbook of Statistics 2023 — International Trade in Goods and Services*. Geneva. <https://unctad.org/publication/handbook-statistics-2023>
22. Tranfield, D., Denyer, D., & Smart, P. (2003). Towards a Methodology for Developing Evidence-Informed Management Knowledge by Means of Systematic Review. *British Journal of Management*, 14(3), 207-222. <https://doi.org/10.1111/1467-8551.00375>
23. Jabareen, Y. (2009). Building a Conceptual Framework: Philosophy, Definitions, and Procedure. *International Journal of Qualitative Methods*, 8(4), 49-62. <https://doi.org/10.1177/160940690900800406>
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). *To'qimachilik klasterlarini rivojlantirish dasturi*. Toshkent. <https://lex.uz/uz/docs/-6402441>
25. Goldratt, E. M. (1990). *Theory of Constraints*. Great Barrington, MA: North River Press. <https://www.tocico.org/page/TOCBodyofKnowledge>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>